

## BUTUNJAHON SOG'LIQNI SAQLASH HAMJAMIYATIDA DOLZARB ENDOKRINOLOGIK PATOLOGIYALAR : OSHQOZONOSTI BEZI VA UNING KASALLIKLARIDA PROGRESSIV YECHIMLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20181457>

**Abdurasulova Bibixadicha Nazirjon qizi**

*Namangan davlat universiteti tibbiyot fakulteti pediatriya yonalishi PED-DU-25-2  
guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: Maxsuxodjayev Muzaffar Mutalifovich, Namangan davlat  
universiteti o'qituvchisi,*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada oshqozonosti bezining endokrin qismi, xususan Langerhans orolchalari tuzilishi va gormonal faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek, qandli diabetning 1- va 2-tiplarining etiopatogenezi, klinik-funksional xususiyatlari hamda ularni zamonaviy davolash yondashuvlari yoritilgan. Maqolada insulin sekretsiyasi, insulinorezistentlik, MODY shakllari va GLP-1 retseptor agonistlarining klinik ahamiyati bo'yicha ilmiy manbalar asosida umumlashtirilgan malumotlar keltirilgan. Qandli diabetning global tarqalishi, uning tibbiy-ijtimoiy ahamiyati va profilaktik choralariga alohida etibor qaratilgan.

### **Kalit sozlar**

Langerhans orolchalari, oshqozonosti bezi, endokrinologik patologiya, qandli diabet, insulin, glyukagon, insulinorezistentlik, MODY, GLP-1 retseptor agonistlari.

### **KIRISH**

Qandli diabet bugungi kunda dunyo sog'liqni saqlash tizimining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu kasallikning keng tarqalishi, surunkali kechishi, erta asoratlar rivojlanishi hamda mehnatga layoqatlilikka salbiy tasiri uning nafaqat klinik, balki ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini ham oshirmoqda. Ayniqsa, 2-tip qandli diabetning notog'ri ovqatlanish, kamharakatlilik, semizlik va metabo'lik buzilishlar bilan bogliq holda ko'payib borayotgani muammoning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Oshqozonosti bezining endokrin qismi Langerhans orolchalaridan tashkil topgan bo'lib, ular bez massasining nisbatan kichik qismini egallasa-da, organizm uglevod almashinuvini boshqarishda muhim rol oynaydi. Orolchalarda asosan beta-hujayralar insulin, alfa-hujayralar glyukagon, delta-hujayralar somatostatin

ishlab chiqaradi. Aynan beta-hujayralar tomonidan sintez qilinadigan insulin glyukoza hujayralarga kirishini taminlab, qondagi glyukoza miqdorini meyorda ushlab turadi.

Insulin sekretsiasining asosiy fiziologik stimulyatori glyukoza hisoblanadi. Qonda glyukoza miqdori oshganda beta-hujayralar faollashib, dastlab zaxirada mavjud insulin tez ajraladi, keyinchalik esa uning yangi sintezi kuchayadi. Ushbu jarayon organizmda energetik muvozanatni saqlash va glyukoza toqimalar tomonidan ozlashtirilishini taminlashda muhim ahamiyatga ega.

Qandli diabet - surunkali metabo'lik kasallik bo'lib, insulin sekretsiasini, insulin tasiri yoki har ikkala mexanizmning buzilishi natijasida rivojlanadi. Kasallikning asosiy laborator belgisi surunkali giperglikemiya bo'lib, uzoq davom etganda yurak-qon tomir, buyrak, nerv tizimi va korish organlarida ogir asoratlarni yuzaga keltiradi.

1-tip qandli diabet koproq autoimmun mexanizmlar asosida rivojlanib, beta-hujayralarning yemirilishi va mutlaq insulin yetishmovchiligi bilan xarakterlanadi. 2-tip qandli diabet esa asosan insulinorezistentlik va nisbiy insulin yetishmovchiligi bilan bogliq bo'lib, kopincha semizlik, gipodinamiya va irsiy moyillik fonida shakllanadi.

20 yoshgacha bo'lgan 0.25% yoshlar qandli diabetning 1-turi bilan xastalanadi. Qandli diabetning 1- turi bilan xastalangan bemorlarning 54% ini bo'lalar tashkil etadi. Qandli diabetning 1- turi patogenezi oshqozon osti bezi orolchalari beta hujayralarining autominin zararlanishi mutloq insulin yetishmovchiligi bilan kechadi.

Qandli diabetning 2-turi eng keng tarqalgan kasallik bo'lib, genetik va notog'ri hayot tarzi fondida rivojlanadi. Qandli diabetning 2-turi patogenetik geterogenetik bo'lib, klinik kechishi oziga xos. Qandli diabetning 2- turi, odatda, 40 yoshdan keyin namoyon bo'ladi, bunda insulin ishlab chiqarilishi saqlangan, lekin insulinorezistentlik holati bilan keladi. Parhez va jismoniy zoriqishlar natijasida insulinga sezuvchanlik oshadi.

MODY (Maturity-Onset Diabetes of the Young) - qandli diabetning monogen shakli bo'lib, odatda yosh davrida namoyon bo'ladi va autosom-dominant yol bilan irsiylanadi. Ushbu holatda insulin sekretsiasini boshqaruvchi genlarda, jumladan glyukokinaza genida mutatsiyalar uchrashi mumkin. MODY klinik jihatdan 1- va 2-tip diabetdan ayrim belgilar bilan farq qiladi, shu sababli uni erta aniqlash va differensial tashxislash muhim hisoblanadi.

So'nggi yillarda 2-tip qandli diabetni davolashda inkretin tizimiga tasir qiluvchi preparatlar, xususan GLP-1 retseptor agonistlari keng qollanilmoqda.

GLP-1 ichakda sintez qilinadigan gormon bo'lib, ovqat qabul qilingandan song insulin sekretsiyasini kuchaytiradi, glyukagon ajralishini susaytiradi va glyukoza ning nazoratini yaxshilaydi. Mazkur preparatlar nafaqat glikemik nazoratni yaxshilaydi, balki ayrim bemorlarda tana vaznini kamaytirish va yurak-qon tomir xavfini pasaytirishda ham ijobiy natija krsatadi.

#### **2-TUR QANDLI DIABET XAVFLI RAQAMLARDA:**

Hozir dunyoda yarim milliarddan ortiq kishi ushbu darddan aziyat chekmoqda. Buyuk Britaniyaning nufuzli The Lancet tibbiy jurnalida elon qilingan tadqiqot natijalariga kora, 2021 yilda dunyoda qandli diabet bilan kasallanganlar soni 529 million kishi bo'lgan bo'lsa, 2050 yilga borib ularning soni 1,31 milliardga yetishi mumkin. Britaniyalik tadqiqotchilarning yozishicha, qandli diabet Yer yuzi aholisining 6,1 foizida uchraydi. Bu esa ushbu kasallikdan nogironlik holatlari ortishiga sabab bo'lmoqda. Dunyo miqyosida diabetga chalinganlar soni bo'yicha eng yuqori korsatkich Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlari hissasiga tog'ri keladi. Ulardan katta qismi xastalikning 2-turiga chalingan.

#### **MATERIALLAR VA METODLAR:**

Ushbu maqola adabiyotlar tahliliga asoslangan sharh maqola hisoblanadi. Maqolani tayyorlash jarayonida qandli diabet va oshqozonosti bezining endokrin faoliyatiga oid darsliklar, ilmiy maqolalar, rasmiy statistik malumotlar hamda xalqaro va milliy sog'liqni saqlash tashkilotlari materiallari organildi. Tahlil davomida qandli diabetning etiologiyasi, patogenezi, turlari, klinik xususiyatlari va zamonaviy davolash usullari bo'yicha malumotlar qiyosiy-solishtirma usulda umumlashtirildi. Shuningdek, 2-tip qandli diabetning global tarqalishi va zamonaviy farmakoterapiyadagi yangi yondashuvlar bo'yicha ilmiy manbalar tahlil qilindi.

#### **NATIJARLAR VA MUHOKAMA:**

Adabiyotlar tahlili shuni korsatadiki, qandli diabet, ayniqsa uning 2-tipi, dunyo bo'yicha surunkali kasalliklar orasida eng tez tarqalib borayotgan patologiyalardan biri hisoblanadi. Kasallikning kopayishi aholi orasida semizlik, kamharakatlilik, uglevod va yog'larga boy ratsion, surunkali stress hamda irsiy moyillik bilan chambarchas bogliq. Tahlil qilingan manbalarda 2-tip qandli diabet patogenezida insulinorezistentlik yetakchi orin tutishi, vaqt otishi bilan esa beta-hujayralar funksiyasining susayishi kuzatilishi qayd etilgan.

Mamlakatimizda ham sog'liqni saqlashni isloh qilish bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirish doirasida aholiga endokrinologiya yordamini ko'rsatishning yaxlit, vertikal integratsiyalashgan tizimi yaratildi. Endokrinologiya muassasalarini yuqori texnologiyali uskunalalar bilan jihozlash va endokrin

kasalliklarni profilaktika, diagnostika qilish hamda davolashning zamonaviy usullarini joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.2019 yildagi PQ-4295-sonli qarori ham aynan endokrinologiya sohasiga bagishlangan edi.

O'zbekistonda bundan tashqari "Diabet maktabi" kabi loyihalar, "Umid-D" kabi tashkilotlar bor. "Umid-D" Samarqand viloyatidagi qandli diabet va boshqa imkoniyati cheklangan shaxslarga yordam xayriya markazi bo'lib, uning rahbari Karine Tatinsyan.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti O'zbekistonda qandli diabetning ikkinchi turi bilan kasallanish (har 100 000 kishiga) 2017-yildagi 21,4 nafardan 2021-yilda 18,3 nafargacha kamayganini hisoblab chiqqan.

### **XULOSA:**

Qandli diabet oshqozonosti bezining endokrin faoliyati buzilishi bilan bogliq bo'lgan, keng tarqalgan va tibbiy-ijtimoiy ahamiyati yuqori kasallikdir. Ayniqsa, 2-tip qandli diabetning kopayib borishi zamonaviy turmush tarzidagi salbiy omillar bilan bevosita bog'liq. Adabiyotlar tahlili shuni korsatadiki, kasallikning erta profilaktikasi, sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollikni oshirish, tana vaznini nazorat qilish hamda zamonaviy dori vositalaridan oqilona foydalanish diabet asoratlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, GLP-1 retseptor agonistlari kabi yangi davolash yondashuvlari 2-tip qandli diabet terapiyasining samaradorligini oshirishda istiqbo'lli yonalishlardan biri hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:**

1. Xalqaro Diabet Federatsiyasi (IDF) ATLAS DIABETES  
<https://diabetesatlas.org/resources/idf-diabetes-atlas-2025/>
2. Novo Nordisk Uzbekistan Novo Nordisk A / S Uzbekistan vakolatxonasi  
[www.novonordisk.uz](http://www.novonordisk.uz)  
[io-rom-safety@novonordisk.com](mailto:io-rom-safety@novonordisk.com)
3. KUN.UZ <https://kun.uz/news/2023/06/30/2050-yilda-qandli-diabetga-chalanganlar-soni-13-milliardga-yetishi-mumkin-the-lancet>
4. © 2020 "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati»  
DM
5. Sog'lom turmush tarzi markazi  
<https://www.facebook.com/sog'lomturmushmarkazi/posts/butunjahon->

qandli-diabet-kuni-xalqaro-diabet-federatsiyasi-idf-va-jahon-sog'liqni/395353628500776/

6. Gazeta.uz <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/29/diabetes/>

7. Patologik anatomiya 2 M.S.ABDULLAXOJAYEVA

8. Endokrinologiya B.X.SHAGAZATOVA

9. Endokrinologiya D.X.NAJMUTDINOVA taxriri ostida